



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TALABALARNING UMUMKASBIY TAYYORLIGINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Mamarajabov Shavkat Ergashevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning umumkasbiy tayyorligini shakllantirish jarayonida differensial yondashuvdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Talabalarning individual xususiyatlari, bilim darajasi, o'quv motivatsiyasi va kasbiy qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: differensial yondashuv, umumkasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya, oliy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ta'lim metodikasi, individual yondashuv, ta'lim samaradorligi.

ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ПОДХОДА

Мамараджабов Шавкат Эргашевич

Ташкентский государственный экономический университет, профессор

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические возможности использования дифференцированного подхода в процессе формирования общей профессиональной готовности студентов высших учебных заведений. Раскрываются методические основы организации образовательного процесса с учетом индивидуальных особенностей студентов, их уровня знаний, образовательной мотивации и профессиональных интересов.

Ключевые слова: дифференцированный подход, общая профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, высшее образование, педагогические технологии, методика преподавания, индивидуальный подход, эффективность образования.

FORMATION OF GENERAL PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS BASED ON A DIFFERENTIAL APPROACH

Mamarajabov Shavkat Ergashevich

Tashkent State University of Economics, Professor

Abstract

This article analyzes the pedagogical potential of using a differentiated approach to developing the general professional readiness of students at higher education institutions. It explores the methodological foundations for organizing the educational process, taking into account the individual characteristics of students, their level of knowledge, educational motivation, and professional interests.

Keywords: differentiated approach, general professional preparation, professional competence, higher education, pedagogical technologies, teaching methodology, individual approach, effective education.

Zamonaviy globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Mehnat bozorining raqobatbardosh mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji oliy ta'lim muassasalaridan yuqori darajada tayyorlangan, mustaqil fikrlay oladigan, kasbiy faoliyatga tez moslasha oladigan kadrlarni tayyorlashni talab qiladi. Talabalarning umumkasbiy tayyorgarligi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Umumkasbiy tayyorgarlik nafaqat nazariy bilimlar majmuasini, balki analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoada ishlash va kommunikativ kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo'llash muhim pedagogik omil hisoblanadi. Differensial yondashuv talabalarning individual xususiyatlari, bilim darajasi, qobiliyatlari va o'quv ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga imkon beradi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fanida differensial yondashuv muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotchilar differensial yondashuvni ta'lim jarayonini individuallashtirishning muhim vositasi sifatida baholaydilar. Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda talabalarning individual o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish o'quv samaradorligini oshirishi ta'kidlangan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv bilan birgalikda differensial yondashuvni qo'llash talabalarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan [1; 45–46- b.].

Xususan, L.Vigotskiy o'zining “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasida ta'lim talabaning mavjud bilim darajasi bilan potentsial rivojlanish darajasi orasidagi hududda tashkil etilishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu g'oya differensial ta'limning eng muhim nazariy asoslaridan biridir. Kognitiv rivojlanish bosqichlari nazariyasini yaratgan Jean Piagetning talabalarning yosh va rivojlanish bosqichiga mos ta'lim berish g'oyasi esa differensial ta'limga asos bo'lgan. “Spiral curriculum” va konstruktivistik ta'lim nazariyasi asoschisi Jerome Bruner o'quv jarayonini o'quvchi qiziqishlari va bilim darajasiga moslashtirish g'oyasini ilgari surgan. Differensial ta'lim metodikasining eng mashhur zamonaviy tadqiqotchilaridan biri Carol Ann Tomlinson o'zining “The Differentiated Classroom” va “How to Differentiate Instruction in Mixed Ability Classroom” asarlarida differensial ta'limning 4 elementini ishlab chiqqan: mazmun, jarayon, natija va o'quv muhiti. Individual farqlar asosida ta'limni tashkil etish g'oyasini ishlab chiqqan Robert Glaser “Individually prescribed instruction” (individual o'quv dasturi) modelini taklif qilgan. Howard Gardner o'zining “Ko'p intellekt nazariyasi”da har bir inson turli intellekt turlariga ega bo'lishi differensial ta'lim zarurligini asoslab beradi. Bundan tashqari B.Bloom, M.Montessori, J.Dewey, L.Zankovlar ham o'z ishlarida differensial ta'limni rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tgan. Mahalliy tadqiqotlarda ham oliy ta'lim jarayonida individual va differensial yondashuvlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi.

Jumladan, N.Muslimov kasbiy ta'lim pedagogikasi va metodikasi bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borgan. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda individual va differensial yondashuv masalalarini yoritgan [2; 87–96- b.]. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha tadqiqotlar muallifi O'.Tolipov ta'limni individuallashtirish va tabaqalashtirish masalalarini pedagogik texnologiyalar bilan bog'lab o'rgangan [3; 52–66- b.]. M.Usmonboyeva talabalarning individual o'quv imkoniyatlarini hisobga olish asosida ta'lim samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. R.Ishmuhamedov zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'lim metodikasi bo'yicha olib borgan ishlarida ta'lim jarayonida talabalar faolligi va individual xususiyatlarini hisobga olish muhimligini asoslagan [3; 94–106- b.]. Pedagogika nazariyasi va metodologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarida B.Ziyomuhamedov shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish masalalarini tadqiq qilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ishlari differensial ta'limni pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan uyg'un holda rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash, so'rovnoma va pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi differensial yondashuv asosida talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Talabalarning bilim darajasi va kasbiy motivatsiyasini aniqlash.
2. Talabalarni o'quv imkoniyatlari asosida differensial guruhlariga ajratish.
3. Har bir guruh uchun mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish.
4. Tajriba natijalarini monitoring qilish va tahlil etish.

Mazkur metodologiya talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Differensial yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bir qator metodik tamoyillarga asoslanadi. Jumladan, individual xususiyatlarni hisobga olish, ta'limning moslashuvchanligi, motivatsiyani oshirish va faol o'quv faoliyatini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini shakllantirishda quyidagi metodik usullar samarali hisoblanadi:

Birinchidan, individual o'quv topshiriqlarini qo'llash. Bu usul talabalarning bilim darajasiga mos vazifalarni bajarish imkonini beradi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalar analitik fikrlash va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Uchinchidan, loyiha asosida o'qitish metodidan foydalanish. Talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali kasbiy faoliyatga oid loyihalarni ishlab chiqadilar. Bu jarayon jamoaviy ishlash, liderlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi.

To'rtinchidan, amaliy mashg'ulotlarni differensial tashkil etish. Talabalarga bilim darajasiga mos murakkablikdagi topshiriqlar berilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari differensial yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

Tajriba davomida talabalarning kasbiy motivatsiyasi, mustaqil ishlash ko'nikmalari hamda muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlari ijobiy tomonga o'zgargani kuzatildi. Differensial yondashuv qo'llanilgan guruhlarda o'quv natijalari an'anaviy usulda o'qitilgan guruhlariga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini talabalarning individual imkoniyatlari asosida tashkil etish ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.


Tadqiqot natijalari asosida talabalarning umumkasbiy tayyorligini differensial yondashuv asosida shakllantirishning konseptual modelini ishlab chiqdik (1-rasm). Mazkur modelning maqsadi talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularda umumkasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish hamda ta'lim jarayonini individuallashtirish va optimallashtirishdan iborat.

Ushbu konseptual modelning amaliy va ilmiy qiymati juda muhim. U nafaqat nazariy konstruktsiya, balki real ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Xususan, har bir talabaning individual imkoniyatlari hisobga olish va "hamma uchun bir xil ta'lim" yondashuvni bartaraf etish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, talabalar qobiliyatiga mos topshiriqlarning berilishi natijasida ularning individual rivojlanishi ta'minlanadi. Mazkur model talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni yechish, kasbiy qaror qabul qilish, kommunikatsiya

kabi umumkasbiy kompetensiyalarni sifatli shakllantirish imkonini beradi.

Model ta'lim jarayonini boshqarishni o'qituvchi uchun aniq algoritm berilishi, darsni rejalashtirishni tizimlashtirilishi va har bir bosqichning nazorat ostida bo'lishi bilan osonlashtiradi.

Talabalarning motivatsiyasi o'z darajasiga mos vazifa bajarishi, muvaffaqiyat hissining paydo bo'lishi bilan kuchayib boradi. Talabalar bilimni differensial baholash imkonini har bir guruh uchun mos mezonlardan foydalanish, adolatli baholash tizimini yo'lga qo'yilishi, rivojlanish dinamikasini kuzatishga sharoit yaratadi. Ushbu model "har xil talaba — har xil yondashuv — yagona sifatli natija" tamoyilini amalga oshiradi.



1-rasm. Talabalarning umumkasbiy tayyorligini differensial yondashuv asosida shakllantirishning konseptual modeli

Xulosa qilib aytganda, differensial yondashuv asosida talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini shakllantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Mazkur yondashuv talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Natijada talabalarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi hamda o'quv jarayonining umumiy samaradorligi oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avliyakov N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.
2. Muslimov N. Kasbiy ta'lim metodikasi.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti.
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология.
5. Кларин М.В. Инновационные педагогические технологии.
6. Shodmonov E. Oliy ta'lim pedagogikasi.